



HUMAN
SCIENCES.UZ

ISSN 3093-8961

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2026

2-JILD | 4-SON



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 4 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Axmedov Oybek Saporbaevich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: oybekakhmedov1978@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3122-1973

Samigova Xushnuda Batirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: kabsam@yandex.ru
ORCID: 0009-0005-2327-106X

Eshmo‘minov Asqar Allamurodovich
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: asqar@list.ru

Axmedova Mehrinigor Bahodirovna
Filologiya fanlari doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: mexrisha82@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1198-0326

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.com
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Ilhombekov Jasurbek Ilxombek o‘g‘li
Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o‘qituvchi.
E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

Imomov Nurillo Fayzullaevich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: nurillo_1212@mail.ru
ORCID: 0000-0001-8090-842X

Pirmatov Otabek Shavkatovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru
ORCID: 0000-0002-0774-661

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: ismoilov.shuhrat80@mail.ru
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Matkarimov Kudrat Kalandarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: qudrat1979uzb@gmail.com
ORCID: 000-0003-0396-4027

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: dr.profil14@gmail.com
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Hakimov Komil Baxtiyarovich
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor.
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

Kadirova Moxigul Xamitovna
Yuridik fanlar doktori (DSc). Professor v.b.
E-mail: m.kadirova@tsul.uz
ORCID: 0000-0003-1450-7542

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

Olimova Sevara

“GO‘RO‘G‘LI” DOSTONIDAGI AN‘ANAVIY JAMIYAT MAROSIMLARINING TARIXIY-ETNOGRAFIK TAHLILI6-10

Yuldasheva Shahlo

XVI – XIX ASRLAR XIVA XONLIGI ETNO- SIYOSIY TARIXI MUOMMOLARI (ETNOLOGIK TADQIQOTLAR ASOSIDA) 11-15

Abdullayeva Shoxnoza

“XORAZM MUSIQIY TARIXCHASI” ASARI – MARKAZIY OSIYO MUSIQIY SAN‘ATINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA SIFATIDA 16-22

Djabbarova Sevara

XORAZMDA ZIYORATGOH MADANIYATI: ISLOMIY VA MAHALLIY UNSURLAR UYG‘UNLIGI 23-26

Jumabekova Zarafshan

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA QAL‘AJIQ QAL‘A YODGORLIGINI QAYTA TIKLASH VA REKONSTRUKSIYA QILISH 27-31

FILOLOGIYA FANLARI

Isanova Feruza

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI: QIYOSIY TAHLIL 32-41

YURIDIK FANLAR

Zokirov Shoxruxbek

QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISHNING SHAKLLARI VA ULARNING NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR SIFATIGA TA‘SIRI 42-48

TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES

Article / Original Paper

**“GO‘RO‘G‘LI” DOSTONIDAGI AN‘ANAVIY JAMIYAT MAROSIMLARINING
TARIXIY-ETNOGRAFIK TAHLILI**

Olimova Sevara Iskandarovna

Ma‘mun universiteti NTM,

“Tarix” yo‘nalishi magistratura talabasi

Email: olimovasevara314@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq qahramonlik eposining yirik namunasi bo‘lmish “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarida aks etgan urf-odat va marosimlar tizimi xalqning an‘anaviy ijtimoiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlari hamda ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarini o‘zida namoyon etuvchi tarixiy-etnografik manba sifatida chuqur tahlil qilinadi. Dostonlar syujetidagi ontologik jarayonlar (tug‘ilish, ism qo‘yish, o‘lim), initsiatsiya (yigitlikka o‘tish va qahramonning ijtimoiy legitimatsiyasi), elchilik, nikoh, mehmondo‘stlik va qasamyod kabi rasm-rusumlar shunchaki badiiy ifoda emas, balki an‘anaviy jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi vosita ekanligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, dostondagi marosimlar xalqning tarixiy o‘tmishi, mifologik dunyoqarashi, “dasht demokratiyasi” qoidalari hamda islomiy qadriyatlar sinkretizmi asosida tadqiq etilib, ularning etnik identifikatsiyani mustahkamlovchi vosita sifatidagi roli ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: “Go‘ro‘g‘li” turkumi, qahramonlik eposi, etnografiya, marosim, initsiatsiya, sotsiomadaniy genenez, an‘anaviy huquq (odat), qasamyod instituti, etnik identifikatsiya, mifologik tafakkur, Chambilbeklik.

**HISTORICAL-ETHNOGRAPHIC ANALYSIS OF TRADITIONAL SOCIETY
RITUALS IN THE "GOROGLI" EPIC**

Olimova Sevara Iskandarovna

Mamun University NGO,

Master's student in "History"

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the system of customs and rituals reflected in the "Gorogli" epic cycle, a major masterpiece of Uzbek heroic folk epics. It examines these rituals as a valuable historical and ethnographic source representing the traditional social life, socio-political institutions, and moral values of the people. The study demonstrates that customary practices such as ontological processes (birth, naming, death), initiation (coming of age and social legitimation of the hero), diplomacy, marriage, hospitality, and oath-taking are not merely artistic expressions, but fundamental regulatory mechanisms governing relationships within traditional society. Furthermore, the rituals in the epic are explored through the lens of the people's historical past, mythological worldview, principles of "steppe democracy," and the syncretism with Islamic values, thereby scientifically substantiating their role in consolidating ethnic identity.

Keywords: "Gorogli" cycle, heroic epic, ethnography, ritual, initiation, socio-cultural genesis, customary law (adat), institution of the oath, ethnic identification, mythological thinking, Chambilbeklik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/hum-i4v2y2026/n01>

KIRISH

Xalq og‘zaki ijodi durdonalari, xususan, qahramonlik eposlari faqatgina badiiy-estetik tafakkur mahsuli bo‘lib qolmay, balki xalqning muayyan tarixiy davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy,

siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda xizmat qiluvchi qimmatli tarixiy-etnografik manba hisoblanadi. O'zbek xalq dostonchiligining shoh asari bo'lmish "Go'ro'g'li" turkumi asrlar davomida xalq baxshilari tomonidan sayqallanib, an'anaviy o'zbek jamiyatining qadriyatlar tizimini, ijtimoiy institutlarini, turmush tarzi va dunyoqarashini o'zida qomusiy tarzda qamrab olgan. Turkum dostonlardagi voqealar markazida turuvchi Chambil yurti – o'zbek xalqining ijtimoiy adolat, tinchlik, farovonlik va ideal jamiyat haqidagi utopik orzularining yorqin ifodasidir. Biroq, bu ideal jamiyatni boshqarish va tartibga solish quruq qonunlar bilan emas, balki xalq xotirasida chuqur ildiz otgan *marosimlar va urf-odatlar (odat huquqi)* orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunga qadar "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari folklorshunoslik, adabiyotshunoslik va tilshunoslik doirasida keng o'rganilgan. Eposning kelib chiqish tarixi, badiiy xususiyatlari, variantlari va baxshilarning ijro uslublari H.T. Zarifov, V.M. Jirmunskiy, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, M. Murodov, Sh. Turdimov kabi yirik olimlar tomonidan fundamental tadqiq qilingan. Biroq, dostonlarda aks etgan marosimlarning ijtimoiy-antropologik, etnografik va sotsiomadaniy funksiyalarini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish, ularning an'anaviy jamiyat institutlarini shakllantirishdagi o'rnini ko'rsatish masalasi bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Epos syujetini harakatlantiruvchi, qahramonlarni tutashtiruvchi va ziddiyatlarni hal qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lgan marosimlar tizimi – urug'-qabila munosabatlarining va an'anaviy huquq normalarining badiiy-epik in'ikosidir. Shu ma'noda, "Go'ro'g'li" eposini tarixiy-etnografik va antropologik yondashuv asosida o'rganish tarix, madaniyatshunoslik va sotsiologiya fanlari uchun boy material beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, struktur-semantik hamda madaniy antropologiya metodlaridan keng foydalanildi. Marosimlar shunchaki adabiy-syujet elementi yoxud badiiy bezak sifatida emas, balki an'anaviy jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, shaxs maqomini qonuniylashtiruvchi va jamoaviy yordamni taminlovchi faol ijtimoiy institutlar sifatida tahlilga tortildi.

Empirik manba sifatida "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarining turli variantlari, xususan, Po'lkani shoir (Muhammad Jomrod o'g'li), Rahmatulla Yusuf o'g'li kabi yetakchi dostonchilar ijrosidagi matnlar hamda Xorazm dostonchilik maktabi namunalariga tayanildi. Bu matnlardagi marosimiy jarayonlar tarixiy-etnografik ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

ASOSIY QISM VA NATIJALAR TAHLILI

Dostonlardagi etnografik va marosimiy qatlamni tadqiq etish jarayonida ularni bir necha ijtimoiy va e'tiqodiy guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Ontologik marosimlar: Tug'ilish, initsiatsiya[9] va maqomning belgilanishi

"Go'ro'g'li" eposida inson hayotining ontologik bosqichlari o'ta muqaddas xususiyatga ega bo'lib, ular maxsus marosimlar orqali amalga oshadi. Doston syujeti qahramonning g'ayritabiiy tug'ilishi bilan boshlanadi. Uning onasi qabrda yorug' olamni tark etadi, go'dak esa tirik qolib, go'rda oziqlanadi ("Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni). Bu oddiy syujet motivi emas. Qadimiy turkiy qavmlarning mifologik dunyoqarashida go'r – bu faqatgina o'lim makoni emas, balki narigi dunyo (ajdodlar ruhi yashaydigan olam) bilan bog'lovchi o'tish hududdir. Go'rdan tirik chiqish motivi – shamanlik initsiatsiyasi yoki *qayta tug'ilish* madaniyatining eposdagi qoldig'idir. Epos qahramoni aynan ajdodlar makonida pishib yetilgani uchun ham ilohiy kuchga, qutga (xarizmaga) ega deb qaraladi [6, B.85].

Bolaga ism qo'yish (nomenatsiya) ham xalq etnografiyasining eng muhim jarayonidir. Ism qahramonning nafaqat kimligini, balki jamiyatdagi vazifasini ham belgilab beradi. Eposda qahramonga Ravshan, Avaz, Hasan, Xon dalli kabi ismlarning qo'yilishida albatta pir, devona yoki elning oqsoqollari ishtirok etishi tasvirlanadi. Go'ro'g'li ismining berilishi (yoki uning asl ismining o'zgarishi) qahramon maqomining an'anaviy sotsium tomonidan tan olinishini (legitimatsiya amaliyotini) ifodalaydi.

Qahramonning bolalikdan yigitlikka o'tishi qadimiy *initsiatsiya* marosimlarining eng yorqin in'ikosidir. An'anaviy ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador xalqlarda yigit kishi faqat ma'lum bir yoshga yetgani uchungina "erkak" maqomini olmagan, u o'zining jismoniy, ruhiy va harbiy salohiyatini marosimiy sinovlarda isbotlashi shart bo'lgan. Go'ro'g'li yetuk yigit maqomiga yetish uchun o'ziga mos ot topishi (G'irotni tanlashi va uni tarbiyalashi), qurol-aslahalarga ega bo'lishi (masalan, bobosi ko'rgan xazinani yoki temirchini topishi) va birinchi qahramonona yurishni amalga oshirishi kerak [7, B.210]. Initsiatsiya jarayonida otning o'rni beqiyos: eposda ot shunchaki ulov emas, balki botirning totemi, himoyachisi va ajralmas qismidir. Dostonlarda yigitni urug' va el oldida sinash, unga oq fotiha berish marosimi yosh avlodni el-yurt mas'uliyatini olishga psixologik va sotsial jihatdan tayyorlagan.

2. Ijtimoiy-huquqiy institutlar: Qasamyod, elchilik va o'zaro sadoqat "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari ijtimoiy ichki aloqalarini qattiq nazorat qiluvchi *odat huquqi* (an'anaviy huquq) normalarining qomusidir. Chambil beklarining atrofida 40 yigitning birlashishi (harbiy demokratiya) qat'iy marosimlarga tayanadi. *Qasamyod (ont ichish)* eposda eng oliy huquqiy va ma'naviy muassasa hisoblanadi. O'zbek urug'larida yozma qonun-qoidalar to'la shakllanmagan davrlarda, aynan marosimiy qasamyod ijtimoiy munosabatlarning kafolati bo'lgan. Dostonlarda botirlar do'st tutinganda yoki biror ishga ahdlashganda qon chiqarish, qilich o'pish, non va tuz (tuzoq) haqi bilan qasam ichish holatlari ko'p uchraydi. Xalq tafakkurida "Tuz haqini oqlash" eng muqaddas burch sanaladi. Asardagi barcha fojialar, dushmanlik va xiyonatlar aynan ana shu marosimiy qasamyodning buzilishi natijasida yuzaga keladi. Qasamdan qaytish qahramonning sotsiumdan chetlatilishiga, obro'sini yo'qotishiga va hatto o'limiga sabab bo'lishi dostonning asosiy didaktik qoidalaridan biridir.

Elchilik instituti turkum syujetida yuksak diplomatik san'at sifatida aks etadi. "Avazxon", "Hasanxon", "Nurali" kabi o'nlab dostonlarda boshqa yurtlarga elchi yuborish, sovchilikka borish epizodlari mavjud. Dostonlarda diplomatik muzokaralar chog'idagi muomala madaniyati, sovg'a-salom almashinuvi, xabar keltirgan elchiga (xabarning qandayligidan qat'i nazar) ozor bermaslik ("elchiga o'lim yo'q" qoidasi) kabi jihatlar ajdodlarimizning xalqaro munosabatlarni qanday tashkil qilganini ko'rsatadi. Sovchilik marosimi ikki urug' o'rtasidagi nikoh munosabatlarinigina emas, iqtisodiy-siyosiy ittifoqni ham anglatgan [4, B.128].

Mehmondo'stlik eposda elementar etiketdan yuqori turuvchi majburiy ijtimoiy institutdir. Doston qahramonlari har qanday holatda ham (hatto kelgan mehmon dushman bo'lib chiqish ehtimoli bo'lsa ham) dasturxon yozishi, mehmonning otiga yem-xashak berishi, yotishiga joy hozirlashi shart qilib qo'yilgan. Mehmondo'stlik marosimi aslida an'anaviy jamiyatda ijtimoiy himoya, ma'lumot almashish va urug'lararo tarmoq vazifasini o'tagan. Epos mezoniga ko'ra, mehmon kutishni eplay olmagan shaxs qahramon yoki yetakchi bo'la olmaydi [3, B.95].

3. Sotsial muvozanat mexanizmi: To'y va harbiy tantanalar Dostonlardagi to'y-tomosha tasvirlari faqat estetik yengillik yoki voqealar yakuni sifatida talqin qilinmasligi kerak. Sotsiologik nuqtai nazardan to'y – moddiy resurslarni urug' va el-yurt o'rtasida qayta taqsimlash, ijtimoiy ierarxiyani belgilash hamda harbiy tayyorgarlik ko'rigidir. Dostonlarda Go'ro'g'li g'alabadan qaytganda yoki yangi yurt olinganda oylab davom etadigan to'ylar (qirq kechayu qirq kunduz) qilinadi.

To'y doirasidagi *ko'pkari (uloq), kurash, merganlik va ot poygasi* kabi musobaqalar etnografik jihatdan harbiy mashg'ulot sanalgan. Jamoa yosh yigitlarning va botirlarning qobiliyatini ana shu ommaviy tadbirlarda sinovdan o'tkazgan. Otlarning zoti va kuch-qudrati namoyish qilingan. Shuningdek, xon va beklarning kiyim-kechak, tilla-kumush va chorva mollarini xalqqa in'om qilishi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutni yumshatgan va rahnamoga nisbatan sadoqatni kuchaytirgan. Ya'ni, to'y marosimi – ijtimoiy tartibni va xalq birligini mustahkamlovchi rasmiy siyosiy akt vazifasini ham o'tagan [1, B.215].

4. E'tiqodiy va ruhiy-himoya marosimlari: Duo, fotiha va animistik in'ikoslar Eposning mifologik-etnografik qatlami g'oyat boy bo'lib, unda qadimgi shomonlik, totemizm va animizm qoldiqlari keyingi islomiy tasavvurlar (so'fiylik motivlari, pirlar, chillaxonalar) bilan uzviy sinkretik holatga kelib qolganini ko'rishimiz mumkin. Dostonlarda eng faol qo'llaniladigan marosimiy unsurlardan biri – bu **duo va oq fotiha**. Voqealar rivojida Go'ro'g'li yoki uning tutingan o'g'illari (Hasan, Avaz, Nurali) jang-u jadalga, safarga otlanganda albatta Go'ro'g'li, onalar yoki el qariyalaridan “oq fotiha” so'raydi. Etnografik jihatdan, qariyalarning duosini olmasdan qilingan harakat fojia bilan tugashiga e'tiqod qilingan. Bu an'ana yoshi ulug'larga bo'lgan yuksak hurmatni ifodalaydi.

Shu bilan birga, asarda *qarg'ish* marosimi ham borki, nohaqlik qurboni bo'lganlarning yoki ota-onaning o'z farzandiga qilgan qarg'ishi muqarrar amalga oshuvchi ruhiy-magik kuch sifatida tasvirlanadi. Dostonlarda Go'ro'g'lining mushkul ahvolda qolganda “G'oyibdan yetgan qirq chiltan”, pirlar yoxud G'irotning (otning mifologik aqliga ishonch) ko'makka kelishi inson ruhiyatidagi qiyinchilikni yengish usuli ekanligini isbotlaydi. Parilarning, ayniqsa Yunus pari yoki Misqol parilarning voqealar rivojidagi ishtiroki qadimiy matriarxat qoldiqlari hamda tabiat homiylariga sig'inish udumlarining epik adabiyotdagi yorqin aksidir.

MUHOKAMA

Tadqiq etilgan marosim va urf-odatlar “Go'ro'g'li” eposi shunchaki shaxsiy qahramonlik sarguzashtlari eposi emas, balki yaxlit milliy-davlat va urug'chilik tartibi dostonkashligidir degan fikrni tasdiqlaydi. Akademik Sh. Turdimov ta'kidlaganidek, dostonlar qahramonining epik biografiyasi va Chambil atrofidagi siyosiy tuzilma bevosita xalqning ijtimoiy ehtiyojlaridan o'sib chiqqan [6, B.112]. Agar yunon qahramonlik eposlarida fojia va taqdir ustun tursa, “Go'ro'g'li” dostonlarida barcha nizolar, dushmanliklar va inqirozlar an'anaviy odat va marosimlarga bo'ysunish orqali hal qilinadi.

Turkiy xalqlarning ko'chmanchilik va o'troqlik uyg'unligida yashagan davrlarida adolat va barqarorlik vositasi yozilgan konstitutsiya orqali emas, aynan mana shunday barcha uchun majburiy bo'lgan “nomus”, “or”, “qasam”, “mehmondo'stlik” kabi yozilmagan, lekin marosimlashtirilgan qonunlar orqali ta'minlangan. Epos bu marosimlarni ilohiylashtiradi va avlodlarga ideal namuna (etalon) sifatida yetkazadi. Bu jihatdan eposning sotsial-pedagogik hamda huquqiy vazifasi naqadar ulkan ekanligi ayon bo'ladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridagi urf-odat va marosimlar qatlami bo‘yicha quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

Eposdagi rasm-rusumlar (to‘y, elchilik, qasamyod) voqealar foni emas, balki an‘anaviy jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va harbiy munosabatlarni regulyatsiya qiluvchi, jamoa ichidagi ziddiyatlarni bartaraf etuvchi asosiy ijtimoiy-huquqiy institutlardir.

Tug‘ilish, ism qo‘yish va ayniqsa yigitlikka o‘tish (initsiatsiya) marosimlari qahramonning ijtimoiy qonuniy maqomini belgilab bergan. Bu amaliyotlarsiz qahramon eposda shaxs sifatida tan olinmaydi.

Dostonlarda tasvirlangan fотиha, duo, pirlarga e‘tiqod va qasamyod turlari qadimgi turkiy e‘tiqod (tengrichilik, ajdodlar ruhiga sig‘inish) va islom madaniyati qadriyatlarining o‘ziga xos sinkretik qorishmasini tashkil qiladi.

“Go‘ro‘g‘li”dagi marosimlar xalqning tarixiy xotirasini, axloqiy mezonlarini (botirlik, lafzda turish, ota-ona izzati, el sha‘ni) asrlar osha buzilmasdan saqlab kelgan.

Mazkur etnografik ma‘lumotlarni tarix, madaniyatshunoslik va antropologiya fanlari kesishmasida o‘rganish ajdodlarimizning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasi, qadriyatlar ko‘lami haqida yaxlit ilmiy tasavvurga ega bo‘lishimizga xizmat qiladi. Oliy va o‘rta ta‘limda dostonlarni o‘qitishda eposning faqat qahramonona yoki sarguzasht yo‘nalishiga emas, aynan uning maishiy, marosimiy va huquqiy qatlamlariga urg‘u berish milliy identifikatsiyani kuchaytirishda muhim omil bo‘ladi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Go‘ro‘g‘li. O‘zbek xalq dostonlari. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017. – 448 b.
2. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi / Aytuvchi Muhammad Jomrod o‘g‘li Po‘lkan. Nashrga tayyorlovchi M. Murodov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1967. – 280 b.
3. Go‘ro‘g‘li / Aytuvchi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchi T. Mirzayev. – Toshkent: Sharq, 2006. – 320 b.
4. Go‘ro‘g‘li. Xorazm dostonlari / Nashrga tayyorlovchilar S. Ro‘zimboyev, X. Ro‘zimboyev, G. Eshjonova. – Urganch: Xorazm, 2004. – 280 b.
5. Mirzayev T. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1981. – 216 b.
6. Turdimov Sh. Go‘ro‘g‘li dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011. – 240 b.
7. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. O‘zbek xalq qahramonlik eposi. – Toshkent: Fan, 2017. – 456 b.
8. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986. – 220 b.
9. Ubbiniyazova, J. (2026). EPIK QAXRAMON TABIATINING DUALLIGI (QORAQALPOQ XALQ DOSTONI«ALPAMIS» MISOLIDA). In ILMIYARXIV. <https://ilmiyarxiv.com/index.php/preprint/preprint/view/28>
10. **Initsiatsiya** (lotincha initiatio — qabul qilish, boshlash) — an‘anaviy va qadimiy jamiyatlarda o‘smirlarning (asosan o‘g‘il bolalarning) bolalik hayotidan kattalar (balog‘atga yetganlar) qatoriga o‘tishini hamda jamiyatning to‘laqonli a‘zosiga aylanishini anglatuvchi maxsus marosim va jismoniy-ruhiy sinovlar majmuasidir.



SAYT: <https://humansciences.uz>

HUMANSIENCES.UZ

№ 4 (2)-2026

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com